

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TASVIRIY SAN'ATGA QIZIQISHLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Asilova Sanobarxon Xatambojevna

Qo'qon universiteti "Pedagogika va Psixologiya"
kafedrası o'qituvchisi

Nabijonova Nozima Baxtiyorjon qizi

Qo'qon universiteti Psixologiya (amaliy psixologiya)
4-boshqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishlarning psixologik xususiyatlari har tomonlama tahlil qilingan. Bugungi globallashuv va ta'lim islohotlari sharoitida estetik tarbiyaning o'rni, tasviriy faoliyatning bola psixikasi va shaxsiy rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri chuqur asoslab berilgan. Tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik didi, obrazli tafakkuri, sensor qobiliyatlari va ijodiy salohiyatining shakllanishida tasviriy san'atning ahamiyati psixologik va pedagogik nuqtai nazardan yoritilgan. L.S. Vygotskiy, A. Maslow, E. Erikson kabi g'arb olimlari va O'zbekistonlik olimlar Sh.X. Azizov, M.R. Abduqodirovlarning nazariy qarashlari asosida bolalarning tasviriy faoliyat orqali o'zini ifodalash, hissiy dunyosini ochib berish, axloqiy, estetik va ijodiy fazilatlarini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, oilaning, tarbiyachining va muhitning bola san'atga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishdagi o'rni ilmiy yondashuv asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yosh, tasviriy san'at, estetik tarbiya, psixologik rivojlanish, ijodiy qobiliyat, obrazli tafakkur, sensor tarbiya, estetik did, bola shaxsi, rasm, pedagogik muhit.

"San'at — bolaning qalb oynasi: unda u o'zini kashf qiladi, his qiladi va anglaydi."

— L.S. Vygotskiy

Bolalarni san'atga oshno qilish, ularga go'zallik tuyg'usini singdirish m'naviy barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv va jamiyatni isloh etish sharoitida yangicha fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash ta'lim tizimida shu jumladan maktabgacha ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlar kiritishni talab etadi. Bu borada mamlakatimizda bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu islohatlarning barchasi maktabgacha yoshdagi bola shaxsini rivojlanishiga, rivojlanish bosqichlaridagi inqirozli davrlarda bolaga ko'mak berish va qo'llab-quvvatlashdan iborat. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomiga muvofiq bola maktabgacha ta'limni uyda ota-onalarning mustaqil ta'lim berishi orqali

yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha tarbiya muassasalarida, shuningdek maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilingan bolalar uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi.¹ Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab maktabgacha ta'lim tizimi sohasida alohida tizimli yondashuvlar asosida bir qator amaliy ishlar olib borildi. Bola kunning asosiy qismini maktabgacha ta'lim muassasasida o'tkazsa ham, inson kamoloti uchun eng muhim bo'lgan omillardan biri tarbiyaning tamal toshi oilada qo'yiladi. Shu sababli ham maktabgacha pedagogikaning asosiy maqsadi bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga har tomonlama tayyorlashda maktabgacha ta'lim muassasasi bilan oila hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimida inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik, emotsional va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Maktabgacha yosh — bolaning shaxs sifatida shakllanishida, uning dunyoqarashi, hissiy holati va ijodiy fikrlashining rivojlanishida muhim bosqichdir. Aynan shu davrda bolalarda san'atga, xususan tasviriy san'atga bo'lgan qiziqish shakllanadi.

Maktabgacha yosh davri (3–6/7 yosh) inson hayotidagi eng faol rivojlanish bosqichlaridan biridir. Ayniqsa, bu davrda bolalarning estetik didi, ijodkorlik salohiyati, tasavvuri va noan'anaviy fikrlash qobiliyati shakllanadi. Bolalar atrof-muhitni anglashda va o'z kechinmalarini ifodalashda ko'pincha tasviriy san'at vositalaridan foydalanadilar. Ranglar, shakllar, chizgilar ular uchun nafaqat ijodiy vosita, balki ichki dunyosini ifodalash usulidir. Shu sababli bolalarning tasviriy san'atga qiziqishini o'rganish va shakllantirish psixologik jihatdan muhim hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bola psixikasining asosiy xususiyati — bu emotsional obrazli tafakkur bilan fikrlashidir. Bola fikrni mantiqiy tarzda emas, balki obrazlar orqali anglaydi. Aynan mana shu jihat tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Ranglar uyg'unligi, shakllarning farqliligi, o'z asarida jonli tasvir yaratish ehtiyoji bola psixikasining tabiiy ehtiyojlariga mos tushadi.

Psixologlar (L.S. Vygotskiy, D.B. Elkonin, A.V. Zaporozhets va boshqalar) ta'kidlaganidek, bolalarda tasviriy faoliyat orqali emotsional holatlar, motivatsiya, tafakkur va nutq rivojlanadi. Vygotskiyning fikricha, ijodiy faoliyat bolaning "yaqin rivojlanish zonasi"da yuzaga keladi va aynan bu faoliyat orqali u yuqori psixik funksiyalarni o'zlashtiradi.

Tasviriy san'at — bola tafakkurini, estetik idrokini, his-tuyg'ularini va ijtimoiy xulq-atvorini rivojlantirishda beqiyos vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu faoliyat bolalarning o'zini erkin ifoda etishida, tashqi dunyoni o'ziga xos tarzda anglashida va individual qobiliyatlarini namoyon qilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-4646908>

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida olib borilayotgan tub islohotlar, xususan, maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy qilish orqali bolalarning intellektual va madaniy salohiyatini yuksaltirishga yo'naltirilgan. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishni o'rganish, ularning bu boradagi psixologik holatini tahlil qilish va samarali shakllantirish yo'llarini aniqlash muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

Maktabgacha ta'limning vazifasi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'naviy axloqiy jixatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik xislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat. Asosiy maqsadlardan yana biri zamonaviy tasviriy san'at orqali bolalardagi qobiliyat xamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to'g'ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir. Tasviriy san'atning o'ziga xos murakkabliklarini tushunib, uning nozik qirralarini maktabgacha yoshdagi bolalarga ulashish mahoratiga ega bo'la oladigan tarbiyachilarni etishtirib chiqarish vazifasi turibdi.

Rasm chizish, loydan buyumlar yasash va applikatsiya — bu tasviriy faoliyat turlari bo'lib, ularning asosiy vazifasi tevarak-atrofni obrazli aks ettirish hisoblanadi. Masalan, yozuvchining she'ri va rassomning asari.

Tasviriy faoliyat maktabgacha yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. ²Tasviriy faoliyat bolalarni ongli tomondan tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Birorta predmetni chizish yoki yasash uchun albatta u bilan oldindan tanishish yoki kuzatib chiqish, uning shakli, katta-kichikligini, qismlarning joylashishi, rangini bilish kerak bo'ladi. Bu jarayonda ko'rish, sezish, qo'l harakatlari ishtirok etmay qolmaydi. Bolalar predmet va hodisalarni kuzatish va ko'rib chiqish jarayonida predmetni katta-kichik guruhlariga bo'lib, uning shaklini o'zgartirib, rangini turli-tumanligi bilan tasvirlaydilar.

Shuningdek, tasviriy faoliyat jarayonida bolalar turli xil material (qog'oz, bo'r, bo'yoqlar) bilan ularning o'ziga xos xususiyatlari, ular bilan ishlash texnikasi bilan tanishadilar, bu esa bolalarning aqlan o'sishiga sabab bo'ladi. Tasviriy 140 faoliyat jarayonida bolalarda fikr yuritish operatsiyalari (tahlil, sintez, taqqoslash umumlashtirish)ning rivojlanishiga imkon beradi, bu, o'z navbatida, bolalarning oqilona o'sishiga olib keladi. Bu jarayonda bolalarning nutqi rivojlanadi. Sensor tarbiyani amalga oshirishda tasviriy faoliyatning ahamiyati katta. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifatleri, shakli, rangi bilan, katta-kichikligi bilan tanishadilar, ularning farqini, o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa

² <https://universalpublishings.com/index.php/cusr/article/download/171/309/161>

bolalarni sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi.

Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalaydi. Chunki bolalar o'z ishlarida bizning hayotimizda, jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo'ladilar, hayajonlanadilar. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatleri — boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga bir-biriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatlar tarbiyalanadi. Bolalarda, ishni baholash jarayonida, bolalarni o'rtoqlarining ishga nisbatan real munosabatda bo'lish, to'g'ri baholash, o'z ishidan va o'rtoqlarining ishidan xursand bo'lish kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanadi. Tasviriy faoliyat bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyat hisoblanadi. Bolalarda mehnat ko'nikmalarini o'stirish, tarbiyalash kerak, faqat navbatchilik orqali ba'zi bolalarda emas, balki, har bir bolada. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish, bu estetik sezgining bo'laklari hisoblanadi.³

Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi — bu rangi, ritmi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liqdir. Bolalar rangni, shaklni, uning xilmaxilligini sezsa yoki his etsa, u shunchalik ranglar aralashmasining xilma-xilligidan zavq oladi, bahramand bo'ladi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi, ularda predmetga va uning ba'zi sifatlariga nisbatan estetik baho berishga o'rganadilar. Ularda tasviriy san'at asarlarini tushunishga, ularga nisbatan his-tuyg'uni, munosabatni tarbiyalaydi.

Tasviriy faoliyat bolalarda badiiy-ijodiy o'stirishda muhim rol egallaydi. Bolaning badiiy ijodiy o'sishi bu obrazli fikr yuritish, estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarur bo'lgan malaka, ko'nikmalarni egallash hisoblanadi. Masalan, tabiatga yoki istirohat bog'iga sayr, ko'z faslida sayohat uyushtirish. Tarbiyachi bolalarni predmet yoki tevarak-atrofni kuzatishda paydo bo'luvchi estetik his-tuyg'u orqali, tevarakatrofga, kishilar mehnatiga to'g'ri baho berish, vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlarini tarbiyalash mumkin. Bolalarni o'z ishini yana ham chiroyli va yaxshi bajarish, boshqalarga yoqadigan, ularni ko'rganda quvonadigan qilib yaratish bu badiiy, axloqiy tarbiyalashtirishning asosiy vazifasi hisoblanadi. Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi.⁴

Rasm, loy, qurish materiallari bo'yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallashlariga asos bo'ladi. Ularni o'quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning ko'rsatmalarini bajarishga o'rgatadi. Oldiga qo'yilgan vazifani hal etishda, uning asosiy va muhim hal etish yo'llarini izlab topish bu o'quv faoliyatning asosiy

³ <https://universalpublishings.com/index.php/cusr/article/download/171/309/161>

⁴ <https://universalpublishings.com/index.php/cusr/article/download/171/309/161>

sababchilaridan biridir. Tasviriyl faoliyat jarayonida o'z ishini nazorat qilib borish, maktabda vazifalarni bajarishda ham rol o'ynaydi. Shuningdek, bola tasviriyl faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham tayyorlanib boradi.

Maktabda qiziqishga xohish, yangiliklarni bilishga intilish, maqsad sari intilish, tartibli holda shug'ullanish va shu kabilar. Shunday qilib, tasviriyl faoliyat jarayonida olgan malakalar bolalami maktab hayotiga tezda kirishib ketishiga asos bo'ladi.

Tasviriyl faoliyat mashg'ulotlari boshqa ta'lim-tarbiyaviyl ish bo'limlarining vazifalari bilan chambarchas bog'liq. Mashg'ulot o'tishda tarbiyachi bolalarning boshqa faoliyatlarida olgan bilimlariga ham tayanadi. Bolalar tasvirlamoqchi bo'lgan predmet haqida tasavvurga ega bo'lsalar, rasm, loy, applikatsiya ishlarida samarali natijalarga erishish mumkin.

Erik Erikson : Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasida, bolalar ijtimoiyl va hissiyl rivojlanishining o'ziga xos bosqichlari mavjud. Tasviriyl san'at esa bolalarning o'zini ifodalash va ijtimoiyl bog'lanishlarini o'rnatishda muhim rol o'ynaydi. U, shuningdek, tasviriyl san'atning bolalar o'zligini anglash, hissiyl tajribalarni ifodalash va o'zining ichki dunyosini tashqi dunyo bilan bog'lashda qanday yordam berishini ko'rsatgan.

Abraham Maslov : Maslowning ehtiyojlar piramidasida, odamning eng yuqori ehtiyoji - o'zini amalga oshirishdir. Bolalar ijodiy faoliyat orqali o'zlarini ifodalash va tasviriyl san'atda o'zlarini topish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Tasviriyl san'at, uning fikricha, bolaning o'zini amalga oshirish ehtiyojini qondiradi, bu esa ularning shaxsiyl rivojlanishiga turtki beradi.

G'arb allomalarining fikricha, tasviriyl san'at nafaqat bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, balki ular o'zlarini va atrof-muhitni tushunishda muhim vosita hisoblanadi. Tasviriyl san'at orqali bolalar o'z hissiyotlarini ifodalashadi, onglarini rivojlantiradilar va estetik qarashlarni shakllantiradilar. Bu jarayon bolalarning psixologik va ijtimoiyl rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

Hozirgi o'zbek olimlari maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriyl san'atga qiziqishlar shakllanishining psixologik xususiyatlarini o'rganish va tushunishda turli yondashuvlarni ilgari surmoqda. O'zbekistonning zamonaviyl psixologlari, pedagoglari va san'atshunoslari bolalar ta'limi va tasviriyl san'atning ahamiyatini ta'kidlab, ularning rivojlanishida estetik va hissiyl jihatlarining o'rni haqida muhim fikrlar bildirganlar.

Sh. X. Azizov – O'zbekistonlik pedagog-psixolog Sh. X. Azizov maktabgacha yoshdagi bolalarning san'atga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishda tarbiyaning muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra, bolalar tasviriyl san'at orqali o'z hissiyotlarini ifodalash, o'zini anglash va atrof-muhitni idrok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. San'at faoliyati bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga, tasavvurini kengaytirishga va tashqi dunyo bilan bog'lanishga yordam beradi.

M. R. Abduqodirov – Bu sohada M. R. Abduqodirov maktabgacha yoshdagi

bolalarning ijodiy rivojlanishida tasviriy san'atning o'rni haqida so'z yuritgan. U, ayniqsa, rasm chizish, ranglar bilan ishlash, shakllar yaratish kabi faoliyatlar bolalarda yaratuvchanlikni rivojlantirishda muhim ekanligini ko'rsatgan. Abduqodirovning fikriga ko'ra, bolalar san'at orqali nafaqat ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradilar, balki o'zlarini ifodalash, o'zlikni anglash va hissiy izlanishlar qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy san'atga qiziqish ularning psixologik rivojlanishida asosiy omillardan biridir. Bu nafaqat estetik didni shakllantiradi, balki bola tafakkuri, nutqi, emotsional barqarorligi va ijodiy salohiyatini ham rivojlantiradi. Psixologik yondashuv asosida tashkil etilgan tasviriy san'at mashg'ulotlari orqali bolada mustahkam ijobiy qiziqish shakllanadi va bu uning keyingi bosqichdagi ijodiy faoliyati uchun poydevor vazifasini o'taydi.

Xulosa

Tasviriy san'at maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nafaqat ijodiy faoliyat, balki psixologik rivojlanish, hissiy yetuklik, axloqiy-estetik tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi. Rasm chizish, loydan buyumlar yasash va boshqa san'at faoliyatlari bola tafakkurining serqirraliligini ochib beradi, uning nutqini, kuzatuvchanligini, hissiyotini va estetik idrokini boyitadi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy san'at mashg'ulotlarini pedagogik-psixologik yondashuv asosida tashkil qilish, bolaning individual qobiliyatlarini ochib berishda, uni maktab ta'limiga tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar aynan estetik tarbiya va ijodiy rivojlanishga alohida e'tibor qaratayotgan bir paytda, san'at vositasida bola shaxsini barkamol inson sifatida tarbiyalash dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet manbaalari:

1. Yusupova P. "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi". T.: O'qituvchi, 1993.
2. Xasanboyeva O.U. va boshq. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi". T.: Ilm ziyo, 2006.
3. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika". T.: Tafakkur bo'stoni, 2013
4. Kayumova.N "Maktabgacha pedagogika" T.: TDPU ,2013.
5. Qodirova.F., va boshqalar. "Maktabgacha pedagogika".-T., "Ma'naviyat", 2013
6. Xatamboyevna, A. S. (2023). MAKTABGACHA TA 'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANAYOTGAN 6-7 YOSHLI BOLALARNI IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANISHINING SHART-SHAROITLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(17), 344-350.

Internet tarmog'i bo'yicha veb-saytlar ro'yxati:

1. <https://universalpublishings.com/index.php/cusr/article/download/171/309/161>
2. <https://minikar.ru/uz/deti/poznavatelno-issledovatel'skaya-deyatelnost-doshkolnika/>